

О‘QUVCHI YOSHLAR ONGIDA KIBER XAVFSIZLIGI IMMUNITETINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

University of business and science

Psixologiya yo‘nalishi 23-33 guruh talabasi

Axmadjanova Viloyathon Xabibullayevna

Ilmiy raxbar: Jurayev Xaydarjon Odilboyevich

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>

Annotatsiya: Maqolada bugungi globallashuv jarayonida tobora avj olib borayotgan axborot xuruji va uning salbiy oqibatlari haqida fikrlar bildirilgan. Axborot xurujining insoniyat ongini egallashga qaratilgan maqsadi, uning namoyon bo‘lish shakllari va unga qarshi kurashishning dolzarbligi va ahamiyati bo‘yicha fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, internet, axborot xavfsizligi, psixologik immunitet, ta’lim-tarbiya, tobelik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИНФОРМАЦИОННОГО СТУДЕНТОВ

ФАКТОРЫ ИММУНИТЕТА В

ПОВЫШЕНИЯ СООБЩЕСТВЕ

Аннотация: В статье высказаны мнения об информационной атаке и ее негативных последствиях, которые сегодня все больше усиливаются в процессе глобализации. Представлены мнения о целях информационной атаки, направленной на захват сознания человечества, формах ее проявления и актуальности и важности борьбы с ней.

Ключевые слова: Молодежь, Интернет, информационная безопасность, психологический иммунитет, образование, зависимость.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF INCREASING INFORMATION SECURITY IMMUNITY IN THE MINDS OF STUDENTS

Abstract: In the article, opinions are expressed about the information attack and its negative consequences, which are increasing more and more in the process of globalization today. Opinions on the purpose of the information attack aimed at occupying the consciousness of humanity, the forms of its manifestation and the relevance and importance of fighting against it are presented.

Key words: Youth, Internet, information security, psychological immunity, education, addiction.

KIRSH


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Ma‘naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarorida “Yoshlarimiz ongiga salbiy ta‘sir etuvchi, ularni go‘yaviy jixatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish” masalasiga alohida e‘tibor qaratib, aholining internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish asosiy omillardan biriga aylandi [1].

Darxaqiqat bugungi kunda axborot tushunchasining ahamiyati oshganligidan darak beradi. Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasiga, ijtimoiy-madaniy muhit omillari, axborot makonining ta‘siri kengayib bormoqda. Internet tarmoqlari tahdidlari kuchayib borishi natijasida axborotlarni tanlab, saralab olishda katta psixologik zo‘riqishlarga duch kelmoqda. Shu sababli yoshlarning axborot-psixologik xavfsizlik immuniteti Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylandi. Insonlarni axborot iste‘mol qilish va ishlab chiqish borasida qarashlari va mustaqilligi keskin oshdi. Internet taraqqiyotning muhim omili bo‘lishi bilan birga asosiy targ‘ibot quroliga

aylandi. Ayniqsa pornografiya, junoyatchilik, bezorilik, odobsizlik, latifalar, mish-mishlardan iborat keraksiz, zararli axborotga ega juda ko'plab internet kontentlari paydo bo'ldi.

Jamiyatda yot g'oyalar birdaniga kira olmaydi. Qarama-qarshiliklar eng avvalo yoshlarning siyosiy, diniy, ijtimoiy dunyoqarashlar tizimida to'xtovsiz ta'sir qilib turadigan psixologik texnologiyalardan foydalanilmoqda. Zero axborotni tanlash va u bilan ishlash salbiy yoki ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bir tomondan, individ mustaqil bo'lishi lozim. Lekin, ikkinchi tomondan, u o'zining ma'naviy negizlariga putur yetkaza oladigan yot ta'sirdan himoyalalanish dasturiga ega bo'lishi lozim. Individ axborotning soxtaligini o'z vaqtida payqamasligi mumkin, sababi bunday axborot, odatda "Yaltiroq qog'ozga yaxshilab o'ralgan" bo'ladi. Odatda insonning axborotdan foydalanishdagi erkinligi aks samara beradiki, bu individning o'zini ham bunday mustaqillikdan muhofaza qilish zarurligini ko'rsatadi [2].

Yoshlarda axborot bilan ishlash bir qancha jihatlarni qamrab oladi, va ularning ish mexanizmi esa quyidagilardan iborat [3]:



1-rasm. Yoshlarda axborot bilan ishlash jihatlari

Axborot psixologik xavfning ko'lami tobora kengayib bormoqdaki bunda shaxsga ta'sir etishning turli qarashlar tizimidan foydalangan holda tadbiq qilishga muhtojdir. "Shuning uchun ham biz yoshlarni psixologik sifatlari va unga ko'rsatiladigan axborot ta'siri nuqtai nazaridan uchta asosiy mazmunda ko'rib chiqsak, to'g'ri bo'ladi: birinchidan, u maqsadli yo 'naltirilgan axborot-psixologik ta 'sirga duchor qilinadigan

bosh ob'ekt hisoblanadi; ikkinchidan, ayni bir paytda u ijtimoiy axborot bobida birdan-bir ishlab chiqaruvchidir; uchunchidan, u axborot tajovuzlardan davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinishga muhtoj sub'ektdir" [4].

Mafkuraviy-siyosiy ziddiyatlar ta'siri ko'lami kengayib yosh avlodni ham o'z domiga tortib bormoqda. Biror siyosiy tuzilma yoxud birlashma tashkilot, davlat haqida turli vositalar orqali o'zlashtirishga intilish avj olmoqda. Axborot psixologik xavfsizlik nafaqat psixologiyada balki, pedagogika, sotsiologiya, falsafa, axloqshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslikda turlicha talqinda o'rganilmoqda.

Jamoaviy yoki guruhli ijtimoiy-psixologik himoyani shakllantirish. To'rtinchi guruh- jamoaviy psixologik himoyani shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, u muayyan ijtimoiy jamoalar va odamlar birlashmalari bilan shaxsni aniqlash va real ijtimoiy guruhlariga kiritish mexanizmlariga asoslanadi. Bu shaxs tomonidan ma'lum bir guruh baholashlari, me'yorlari, fikrlari va boshqalar ma'lumotlarini tahlil qilish va tanlashda foydalanishni, shuningdek uning guruh ichidagi ma'lumotlar oqimlari va manbalariga yo'naltirilganligini belgilaydi [2]. Shaxsning individual psixologik himoyasini yoki psixologik o'zini-o'zi himoya qilishni shakllantirish. Beshinchi guruh - axborot va kommunikatsion o'zaro ta'sir tajribasini o'zlashtirish jarayonida shaxsda shaxsiy shakllanishlar, aqliy faoliyat algoritmlari va boshqalarni shakllantirish bilan bog'liq [4]. Shaxsning axborot va psixologik xavfsizligini ta'minlashning yuqoridagi yo'nalishlaridan birinchi to'rttasi inson uchun tashqi sharoitlarga, boshqa ijtimoiy sub'ektlarning faoliyatiga, turli ijtimoiy institutlarning faoliyatiga va boshqa odamlarga bog'liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib yoshlar ongida internet tarmoqlaridan axborotlarni qabul qilishda psixologik immunitetini hosil qilishda quyidagi omillarni rivojlantirish zarurati mavjud [5]:

- yoshlarda vatanparvarlik, sadoqat, milliy o'zlikka xos tushunchalarini boyitish shakllantirib borish;
- huquqiy, axloqiy me'yorlarga rioya etish va axborot xavf omili uning zarurati haqida izchil va muntazam ravishda bilimlarni berib borish;

- internetga tobelikning psixologik ta'siri sog'lom turmush tarziga amal qilish;
- internetga qaramlik, mobil telefonlarga tobelik, kompyuter o'yinlarining psixologik mohiyati;
- axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish haqida bilimlar berib borish;
- sharq allomalarining buyuk meroslari axloqiy jixatlarining yoshlarga muhim zarurati;
- yoshlarning go'zallikni his ettirish ko'nikmalarini tarkib toptirish orqali ma'naviy muhofaza qola olish imkonini yaratish omilidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xozirgi zamon yosh avlod shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular axbotor makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olishi zarur. Umuman, bugun axborot makonidagi real voqelikdan kelib chiqib, keng jamoatchilikning manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida yoshlarimizni nosog'lom axborotlardan himoyalash masalasini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish joizdir.

Foydalanilgan adibiyotlar ro'yxati:

1. Taskarayevna, N. Z., Yuldibayevna, B. G., Niyazova, N., Shehzadi, I., & Turayev, S. (2026). Pedagogical Transformations: Agentic AI as a Co-Teacher and Learning Partner. In *Multidisciplinary Perspectives on Agentic AI in Educational Systems* (pp. 63-86). IGI Global Scientific Publishing.
2. Gulmira, B. (2019). Semantic and psychological relationship of Envy and Jealousy. In *Bridge to science: research works* (pp. 174-176).
3. Yuldibayevna, B. G. (2020). Masofaviy ta'limdagi talaba shaxsini tarbiyalashda psixologik tavsiyalar. *Science and Education*, 1(1), 454-457.
4. Odilboyevich, J. X. (2025). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM TARBIYANING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 338-342.

5. Odilboyevich, J. X. (2025). O'SMIRLIK YOSHIDA YUZAGA KELADIGAN REFLEKSIV KOMPETENTSIYANI PSIXOLOGIK VA PEDAGAGIK XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 320-330.
6. Xusanboy, X. G., & Odilboyevich, J. X. (2025). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING PERSEPTIV JIXATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 84(1), 331-337.
7. Odilboyevich, J. X. (2025). O 'SMIRLARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING BOSHQA XULQ-ATVOR SHAKILANISHGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 59(2), 338-347.
8. Odilboyevich, J. X. (2025). SHAXS XARAKTERIGA TASHXIZ QO 'YISHDA PROFAYLING METODINING PSIXOLOGIK JIXATLARI. *Advances in Science and Education*, 1(03), 77-79.
9. Jurayev, X. (2025). O 'smirlarda xarakter aksentuatsiyasining o 'ziga bo 'lgan ishonch rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(12).